

## HAYVON ARXISEMALI LEKSEMALARINING INSON XARAKTERINI IFODALASHDAGI O'RNI

**Ismailova Dilnoza Shavkatovna**

O'zMU Jurnalistika

fakulteti magistranti

E-mail: [dilnoza19850426@gmail.com](mailto:dilnoza19850426@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada hayvon arxisemali leksemalarning inson xarakterini va tabiatini ifodalashi, bunda yozuvchining uslubi va so‘z qo‘llash mahorati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘z va iboralar:** arxisema, leksema, zoonimlar, lingvopoetika, metafora, o‘xshatish

### **KIRISH**

Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi lingvopoetika deb ataladi. Badiiy nutq boshqa nutq turlaridan borliqni obrazli idrok etishning eng mahsuldor vositasi, estetik ta’sir qilishning yuqori darajasi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek xalqi azal- azaldan chorvachilik , dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Ajodollarimizning yashash tarzi va mehnat faoliyati uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar bilan bog‘liq.

Hayvon arxisemali leksemalar tabiat, jamiyat haqidagi xulosalarni, inson fe'l-atvori, harakatiga xos ijobiy va salbiy vaziyatlarni namoyon etishga va ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

### **Maqsad va vazifa**

O‘zbek badiiy asarlarida inson uning ichki dunyosi va xarakterini yorqinroq olib berish maqsadida hayvon arxisemali leksemalardan keng foydalanilganligini olib berish

### **Mulohaza va natijalar:**

#### **1.Insondagি qo‘rqmaslik, dovyuraklik, kuchlilik quyidagi hayvonlarga o‘xshatilgan:**

**A)Sherga:** -Xaloyi-i-iq! –deya qichqirdi Safarmurod aka Ashurni yetaklab o‘rtaga chiqarkan. – Bu jigitni hamma taniydi, a? Bug‘alter bovamizning **sher ular** bu! (Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” 97-bet)

**B) Ona yo‘lbarsga:** Mas’ul xodimning gapi og‘zida qoldi. Maysara yangamning bag‘rida ho‘ng-ho‘ng yig‘lab, titrab-qaqshab yotgan Xosiyat xola bir payt **ona yo‘lbars** kabi sachrab turib ketdi.

(Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” 139-bet)

**S) Ho‘kizga:** - Voy, Parcha o‘lgur! Senga bas kelib bo‘ladimi, **ho‘kizdek** kuching bor!

Ushbu misollarda asar qahramonlarini sher va yo‘lbarsga qiyoslanishi orqali ulardagi dovyuraklik, qo‘rqmaslik va hech bir ishdan tap tortmaslikni bo‘rttirib ifodalash uchun ishlatalgan. Bu shunchaki yo‘lbars emas, farzandiga dard yetsa hech narsadan tap tortmaydigan ona yo‘lbars.

(O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi “ 107- bet)

#### **2. Insondagи qo‘rqaqlik quyidagi hayvonlarga o‘xshatilgan:**

**A) Quyonga:** -G‘alati polvon ekan, -deb qo‘ydi shundoqqina tepamizda turgan sersavlat kishi, negadir zavqli-shavqli qah-qahlarga qo‘shilmay. **Quyonday** qo‘rqaqlik-yu, taslim bo‘lishga orlanyapti.

(Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” 96-bet)

**B)Echkiga:** Qizlar ancha narida, jondordan **hurkkan echkilardek** g‘uj bo‘lib, ur-kaltak maydoniga jonsarak qarashyapti.. Qo‘shko‘llik polvon o‘rtaga chiqdi.

(Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” 13-bet)

**S) Toshbaqaga:** - Onasi, -dedi sekin. –Yurtga kelgan to‘y... Hamma urushga borsa-yu, Kimsan **toshbaqadek** boshini ichiga tortib o‘tirsa yarashadimi?

(O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi” 87- bet)

Ushbu o‘xshatishlar asar ta’sirchanligini oshirish, o‘quvchi ongida asar qahramonining xarakterini yorqinroq ochib berish uchun ishlataligan. Insondagi qo‘rroqlikni ifodalash uchun turli xil hayvon arxisemalaridan foydalanish yozuvchining individual uslubidan darak beradi.

### 3.Insondagи beozorlik va yuvoshlik quyidagi hayvonlarga o‘xhatilgan:

**A) Musicha:** Kampirni birpasda yerga topshirib qaytishdi. Ko‘ngil so‘ragani yana butun mahalla kirdi. Hikmat buva kasal **musichaday** bir chekkada qo‘nishib o‘tirar, aftidan, endi uning olamida hech kim, hech narsa qolmagan edi.

(Abdulla Qahhor “Mahalla” 131-bet)

**B) Mushukchaga:** Yonboshimda bir narsa “miyov” deydi! Qarasam “Qora ammam”ning mushugi! Juda yuvosh **mushuk-da** o‘ziyam! Dadamga o‘xshaydi! Dadamning mo‘ylovi tortsam indamaydi. Mushukning dumini tortsam ham jum turadi. ( O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi” 23-bet)

**S) Qo‘yga:** - Qayoqda tentirab yuribsan yarim kechada?! – Kimsan akam yuzimga chaqchayib qaradi. **Qo‘ydek yuvosh** Kimsan akamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman. (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi” 75-bet)

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, insondagи yuvoshlik, beozorlik xarakterlarini ijodkorlar mahorat bilan tasvirlay olgan. Yuvoshlik “Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, “Chumchuqqa ham ozor bermagan” iboralari yuqoridagi so‘zlarga sinonim sifatida ham ishlataladi.

### XULOSA

Hayvon arxisemali leksemalar inson fe’l-atvori, harakatiga xos ijobiy va salbiy vaziyatlarni namoyon etish va ta’sirchanlikni oshirish uchun ishlataladi.

Badiiy asarda qo‘llanilgan har bir so‘z va element o‘ziga xos muayyan funksiyani bajarishga xizmat qiladi. Hayvon arxisemali leksemalar tilimizning naqadar boy va betakror til ekanligining yorqin ifodasidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Abdulla Qahhor “Anor” hikoyalar to‘plami T. 1980-yil
3. Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” T. 2012-yil
4. Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘sishiq” T. 2012-yil
5. O’tkir. Hoshimov “Ikki eshik orasi” T. 2018-yil

### **Internet saytlari.**

1. <https://kk.convdocs.org/docs/index-138269.html?page=4>
2. <http://samxorfil.uz/yangiliklar/malika-ayyor-dostoni-tilida-zoonimlar>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/zoonimiya-proizvedeniya-m-m-prishvina>